

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BILIMINI
XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Urinova Durdona Olimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab davridagi o'quvchilarning bilimini Xalqaro dasturlar orqali rivojlantirish o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikirlashini PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro dasturlari orqali baholash kategoriyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, boshlang'ich tushunchalar, mantiq, fikrlash.

Kirish: So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z - o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim - tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

- PISA - o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur.
- PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) - turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.
- Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlabki 1997 - yilda ishlab chiqilgan va 2000 - yilda birinchi marta qo'llanilgan.
- PISA bo'yicha bahoning 50 bo'lgan oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.



Ishtirokchilar davlatlar soni: PISA testlarida ishtirok etayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. 2000-yilda - 32 ta, 2003-yil - 43 ta, 2006-yil - 57 ta, 2009-yil - 74 ta, 2012-yil - 65 ta, 2015-yil - 72 ta, 2018-yil - 78 ta.

PISA da o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 tashkil yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

- O'qish savodxonligi.
- Tabiiy-ilmiy savodxonlik.
- Kompyuter savodxonligi.
- Matematik savodxonlik.
- Moliyaviy savodxonlik.

TALIS haqida tushuncha.

TALIS - Teaching and Learning International Survey.

TALIS - turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan tashkil etilgan.

- TALIS NING vazifalari.
- 1. Pedagogning ijtimoiy mavqeini oshirish.
- 2. Pedagogika mutaxassisligi uchun iqtidorli yoshlarni tanlash.
- 3. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.
- 4. Moderatr o'quvchilarni tanlash.
- 5. Uzlaksiz malaka, oshirish jarayonini takomillashtirish.

Asosiy qism: Baholash jarayonida matnni o'qishning ikki turi: o'quvchilarning sinfda va maktabdan tashqari ta'lim olishdagi holati bo'yicha o'tkaziladi.

- O'qish asosida adabiy kitobxonlik mahoratini shakllantirish.
- O'qish orqali matndagi axborotni o'zlashtirish va undan unumli foydalanish malakasini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini xalqaro baholash dasturlari orqali rivojlantirish juda muhimdir. Bu dasturlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholash imkonini beradi. Eng mashhur dasturlar qatoriga PISA, PIRLS va TIMSS kiradi.



PISA (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholaydi¹.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish darajasini baholaydi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini baholaydi.

Bu dasturlar orqali o'quvchilarni tayyorlash ularning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu dasturlar natijalari ta'lim tizimini yaxshilash uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini xalqaro baholash dasturlari (masalan, PISA, TIMSS, PIRLS) orqali rivojlantirish – ta'lim tizimini yaxshilash va o'quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali yondashuvdir. Bu dasturlar o'quvchilarning o'qish, matematika va ilm-fan bo'yicha ko'nikmalarini baholaydi va ularni jahon miqyosida taqqoslash imkonini beradi.

Quyidagi usullar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini rivojlantirish mumkin:

1. Sinovlarning natijalarini tahlil qilish: Xalqaro baholash dasturlari orqali olingan natijalarni tahlil qilish, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash uchun muhim ma'lumotlarni beradi.

2. Muvofiqlashtirilgan o'qitish metodlarini joriy etish: O'quvchilarni baholash jarayonida qatnashgan o'qituvchilar uchun xalqaro tizimlarda sinovdan o'tgan eng yaxshi o'qitish metodlarini o'rganish va amalda qo'llash muhim. Bu o'quvchilarni yaxshiroq tayyorlashga yordam beradi.

3. Mavzularni chuqur o'rganish: Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki amaliy ko'nikmalarini ham baholaydi. Shuning uchun o'quvchilarni murakkab vazifalarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va yaratish qobiliyatini rivojlantirish zarur.



4. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish: Dasturlarga qo'shilish orqali boshqa mamlakatlar tajribalarini o'rganish, o'ziga xos ta'lim strategiyalarini va innovatsiyalarni joriy etish o'quvchilarning global ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. O'qish va yozish ko'nikmalarini oshirish: O'quvchilarning til va matnni tushunish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish uchun xalqaro baholash dasturlari asosida maxsus metodikalar ishlab chiqish mumkin.

Xalqaro baholash dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilimini baholash, balki ta'lim tizimini takomillashtirish va global talablarga javob beradigan yangi ta'lim metodlarini ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturlari orqali o'quvchilarning bilimlarini baholash uchun turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

"Bo'laklaridan butun yasa" metodi.

Bu metod o'quvchilarni izlashga majbur qiladigan metoddir. Ushbu metodda uchta guruhga uchta kanvertda bo'laklarga bo'lingan qog'oz parchalarida harflar yozilgan holatda beriladi. Har bir konvert ichida biror so'z yoki atama yashiringan bo'ladi. O'quvchilar bu so'zni qisqa vaqt davomida tuzib, mazmunini yoritib berishlari kerak bo'ladi.

Bu metod o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash malakasini shakllantiradi.

"Xotira mashqi" metodi.

Xotira mashqi metodi o'quvchi va talabalarda diqqatlilik, ziyraklik va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu metodda uchta guruhdan uchtdan o'quvchilar doskaga chiqib birlariga qaramagan holda doira hosil qilishadi, va ularning har biriga fanga doir atama yoki so'z yozilgan qog'ozlar tarqatiladi. Ular so'zni yaxshilab o'qib bo'lgach, yonidagi o'quvchiga soat mili bo'ylab uzatadi, bu toki birinchi olgan so'zi o'ziga qaytib kelguncha davom etadi. So'ngra har bir guruhdan bittadan o'quvchi qolib eslab qolgan so'zlarini qo'g'ozga yozishi kerak. Qaysi guruh barcha so'zlarni bexato va to'liq yozsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

"Kamalak" metodi.



Ushbu metodni tezkorlik talab etadi. Bu metodda A3 format qog'oz da sonlar rang-barang qilib yozilgan bo'ladi. Uchta guruhdan bittadan o'quvchi chiqadi sonlarning ranglari asosida kim ko'proq shakllar yoyopishtirish uchun bellashishadi. Masalan, 3 soni yashil rangda yozilgan bo'lsa, o'quvchi uchta yashil rangli doira topib yopishtiradi. Birinchi bo'lib tugatgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Bu metodni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilsa ham bo'ladi. Ular uchun qiziqarli va juda yaxshi metod hisoblanadi.

Xulosa:

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini xalqaro baholash tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oq liga, ularni ixtirochi, ijodkorlik katta o'rnatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dastur"ini yaratish hozirgi kunning talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirish bo'yicha boradi. Eng asosiysi biz bu Xalqaro dasturlari orqali bevosita o'quvchilarning bilimlarini baholash hamda mantiqiy fikrlashini shakillantiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. Ina V. S.Mullis va Michail O. Martin PIRLS-2021 baholash qamrovli doirasi. Toshkent. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi matbaa bo'limi 2021.97b



3. D. Tojiboyeva, A. Yo'ldashev "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". Darslik. Toshkent.: "Aloqachi" 2009.
4. G'ulomjonova, F., & Xudayqulova, F. B. (2024). PIRLSNING O'QISHNI O'RGATISH VA O 'QUVCHULARNING NATIJALARIGA TA'SIRI. PEDAGOG, 7(5), 416-421.
5. Boriyevna, X. F., & Qizi, A. B. I. (2023). XALQARO PIRLS BAHOLASH DASTURI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 180-185.
6. <https://lex.uz>.
7. www.iupr.ru.